

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>O.T.Tursunov, F.R.Holboev</b> Qashqadaryo viloyatining aholi zich joylashgan hududlarida tarqalgan <i>Rodentia</i> turkumi vakillarining ekologik holati.....	117
<b>B.M.Sheraliyev, D.E.Urmonova, O.S.Azamov</b> <i>Cottus spinulosus</i> kessler, 1872 (Teleostei: Cottidae) populyatsiyalari orasidagi genetik farqlanish .....	120
<b>F.N.Xabibullayev, M.M.Yunusov</b> Farg'ona vodiysida turli xil genotipdagi asalarilardan to'plangan asalning kimyoviy tarkibi .....	125
<b>U.I.Obidjanov</b> Biologiya o'qitish metodikasi kursi «Hayvonlar» bo'limi" infuzoriya-tufelka" mavzusi bo'yicha laboratoriya ishlarini takomillashtirish .....	129

---

GEOGRAFIYA

<b>B.B.Eshquvvatov</b> O'rta Zarafshon konussimon yoyilma landshaft komplekslari.....	133
<b>Y.Karimov, Q.Yarashev</b> Sirdaryo viloyatida tuproq sho'rli sizoq suvlari sathi va minerallashuvio'zgarishini o'rganish usullari .....	139
<b>R.T.Pirnazarov</b> To'g'onli ko'llar va ularning genezisi haqida.....	144

---

ILMIY AXBOROT

<b>M.M.Xolmatova</b> Talabalarda gigiyenik madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	150
<b>R.R.Mamatov</b> Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari .....	156
<b>R.U.Abdullazizova</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirishning samaradorligi .....	156
<b>R.U.Abdullazizova</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirishning samaradorligi .....	159
<b>A.A.Mirzayev</b> Ibn Arabiyning tasavvufiy-irfoniy qarashlarida "Vahdat ul-vujud" konsepsiyasi tahlili .....	163
<b>L.K.Karshibayeva, H.E.Egamqulov</b> Sirdaryo viloyatining demografik vaziyati va uning geografik jihatlari.....	166
<b>A.A.Yo'ldoshev</b> O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar strategiyasi.....	171
<b>S.Kunduzaliyeva</b> Dars jarayonlarida mediyata'limdan foydalanishning ahamiyati .....	174
<b>N.R.Eshchanova</b> Nafs tarbiyasida tasavvuf ilmining ahamiyati .....	178
<b>M.B.Radjabova</b> O'zbekistonda turar-joy masalasining tarixiy-huquqiy asoslari va davlat tomonidan tartibga solinish asoslari .....	182
<b>S.Isroiljonov, V.A.Karimov</b> Talabalarni jismoniy salomatlik ahvolini darajasi .....	186
<b>D.I.Umirzakova</b> Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining tolerantlik tafakkurini "Yumshoq ko'nikmalar" asosida rivojlantirish mazmuni .....	190
<b>K.N.Murodov</b> Sport kurashida sportchilarining kuch chidamliligini rivojlantirish va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi .....	196
<b>Q.Sh.Omonov, N.A.Abdullayeva</b> Oziq-ovqat mahsulotlarini kishi sog'ligiga ta'siri aks etgan maqollarning lingvomadaniy tahlili .....	203
<b>Sh.N.Nurova</b> Ibn Sino ta'limotida inson masalasi va insoniy xislatlar to'g'risida .....	206
<b>Z.N.Usmonov</b> Sog'lom bo'lish uchun och qolish .....	209

**IBN SINO TA'LIMOTIDA INSON MASALASI VA INSONIY XISLATLAR TO'G'RISIDA  
О ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ПРОБЛЕМЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ СВОЙСТВАХ В УЧЕНИИ ИБН  
СИНА**

**ON THE HUMAN PROBLEM AND HUMAN CHARACTERISTICS IN THE TEACHINGS  
OF IBN SINA**

**Nurova Shoxida Naimovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Nurova Shoxida Naimovna

— Buxoro Zarmed universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada inson to'g'risidagi ilk tasavvurlar falsafa maydoniga kelishidan ancha avval paydo bo'lganligi, inson va uning mohiyati haqidagi falsafiy ta'limotlar qadimdan boshlanib, asta-sekin rivojlanganligi hamda Ibn Sinoning ilmiy merosida insonparvarlik kabi tamoyillar yoshlar tarbiyasida muhimligi bayon qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье утверждается, что первые представления о человеке появились задолго до того, как он пришел в область философии, что философские учения о человеке и его природе зародились с древнейших времен и постепенно развивались, и что такие принципы, как гуманизм в научном учении Ибн Сины, наследие играет важную роль в образовании молодежи.*

**Abstract**

*In this article, it is stated that the first ideas about man appeared long before he came to the field of philosophy, that philosophical teachings about man and his nature started from ancient times and gradually developed, and that principles such as humanity in the scientific heritage of Ibn Sina are important in the education of children.*

**Kalit so'zlar:** Insonparvarlik, ta'lim-tarbiya barkamol avlod, axloq, qadriyat, ma'naviyat, ta'lim, tarbiya, ilm-fan.

**Ключевые слова:** Человечество, образование, совершенное поколение, этика, ценность, духовность, образование, воспитание, наука.

**Key words:** Humanity, education, perfect generation, ethics, value, spirituality, education, upbringing, science.

**KIRISH**

Inson masalasi doimo falsafiy ta'limotlar markazida bo'lgan. Inson to'g'risidagi ilk tasavvurlar falsafa maydoniga kelishidan ancha avval paydo bo'lgan. Inson va uning mohiyati haqidagi falsafiy ta'limotlar qadimdan boshlanib, asta-sekin rivojlangan. "Falsafa"ni fikrlashdagi insoniyat, "insoniyat"ni esa - amaliy hayotdagi falsafa deyish mumkin.

Ma'naviy merosimiz durdonalarida, mutafakkirlarimizning bebaho asarlarida, ularning qimmatli tabiiy-ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy qarashlarining asosida inson masalasi turibdi. Yillar osha, asrlar osha bu masala sayqal topib bormoqda.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Buyuk vatandoshimiz, qomusiy ilmlar sohibi Abu Ali Ibn Sino inson ilohiy karamdan bahramand bo'lgan, olamda tartib o'rnatish va uni obod qilishga tegishli vakolatlarni olgan zotdir, degan edi. Uning fikricha, tangri insonga shunday kuch-quvvatni in'om etdi-ki, u orqali yaxshilikni yomonlikdan, aqliy kamolotni yolg'ondan farq eta olish imkoniyati paydo bo'ldi. Inson aql-zakovat sohibi ekanligi, tabiatda o'ziga xos o'rin egallashi tufayli barcha tirik mavjudotlar saltanatiga hukmronlik qilish huquqini qo'lga kiritgan.

Axloqiy kamolot inson zotiga xos jarayondir, chunki u aql tafakkurning buyuk qudratiga tayangan holda haqiqat bilan yolg'onning chegarasini aniqlabgina qolmasdan, balki do'stni dushmandan ajrata oladi. Ilm bilan xulq-atvor, sa'y-harakatlarning o'zaro birligi insonni donishmandlik, komil inson darajasiga yetkazadi. Bunga hech qanday shubha bo'lmasligi kerak, chunki "go'zallikka va axloqiy kamolotga intilish-bu inson zotiga xos xususiyatdir", deydi mutafakkir.

Inson tabiati azaldan axloqli yoki axloqsiz bo'lmaydi, degan muhim g'oya Ibn Sino asarlarida ilgari surilgan. Odamlar tayyor fazilat, odat hayotiy ko'nikmalar bilan tug'ilmaydilar. Bu kabi xususiyatlar ijtimoiy hayotda sekin-asta ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiyaning ta'siri ostida shakllana borali.

Mutafakkir insondagi yaxshi fazilatlar va illatlar haqida fikr yuritadi. U mayxo'rlik, kashandalik, ortiqcha ovqatlanish, og'ir ruhiy xisssiyotlarning inson salomatligiga salbiy ta'sirini qayd etadi.

U inson masalasini o'ziga xos tahlil etib, uning kamolotga erishishida asosiy o'rin tutadigan omillarni o'z asarlarida ko'rsatib bergan.

Mutafakkir falsafiy qarashlarining markazida inson muammosining alohida e'tirof etilishi "inson barcha narsalarning o'lchovidir", degan fikrni to'la tasdiqlaydi. Inson olam aro olam bo'lib, uning qalb to'yg'onishlari, idroki, tafakkur kuchi va tuyg'ularining bepoyonligi, hissiyoti va ehtirosining jo'shqinligi oldida tashqi olam rangsiz va bemajoldir. Unga qaraganda bu olam kichik olamdir" deganida ana shuni nazarda tutgan.

Donish kashf etgan hayot falsafasining asosiy maqsadi insonning ozodligi, baxt-saodatidir. U insonning dunyoga kelishi, o'rni, voqelikni o'zlashtirishi, to'g'ri yo'lni tanlashi, ilm olib, hunar o'rganishi, o'z-o'zini anglashi masalalari bilan shug'ullandi. Uning fikricha, inson o'z-o'zini anglashi, bilimlarni egallashi, foydali ish bilan shug'ullanib, haq yo'lni tanlashi orqali komillik darajasiga erishishi mumkin. Dekart shunday degan edi: "faqatgina falsafa insonni yovvoyi va varvarlardan ajratadi, shuning uchun ham unda qancha faylasuflik qilinsa, tushunilsa shuncha har bir xalq o'qimishli va fuqaroparvar bo'ladi". Aynan anglash, tafakkur, aql-idrok, farosat insonga boshqa mavjudotlardan o'zi uchun hayot faoliyatini o'z iroda va ongi predmetiga aylantirishga imkon beradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Mutafakkir inson qancha ko'p izlansa, sayohatlarga chiqib shaharlarni ko'rsa, madaniyati bilan tanishsa, kishilar bilan muloqotda bo'lsa, dunyoga nisbatan yopiq ko'zlari ochiladi, olamning, yashash mohiyatini anglaydi, degan fikrni ilgari suradi. U inson yashash uchun kurashishi, o'z g'alabasi uchun har qanday to'siqni yengishi, o'z aqli qobiliyatini ishga solib hayotni davom ettirishi kerakligini aytadi. Uning fikricha, inson yashashidan maqsad dunyoni obod etishdir. Bu esa o'z navbatida tamaddun va taovun bilan bog'liq.

Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya masalalariga jiddiy va ijodiy yondoshgan. Uning bolani tarbiyalash, o'qitish haqidagi ko'p fikrlari mazmun va mohiyati jihatidan chuqurligi, insonparvarligi va teranligi bilan ajralib turadi. Ibn Sino o'zining ta'lim-tarbiya tizimiga odob, falakiyotshunoslik, til va uning grammatikasi, islom fiqxshunosligini Abu Ali ibn Sinoning "Odob haqida", "Alhidoya"("Bag'ishlov"), "Xay non Yaqzon"("Uyg'oqning o'g'li Tirik"), "Salomon va Ibsol", "Yusuf qissasi kabi asarlari ta'lim-tarbiya masalalariga oid bo'lib, Olim ularda ota-onalar bolalarni tarbiyalashda ularga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishlari kerak. ayniqsa bolaning hulqidagi kamchiliklarni uning shaxsiyatiga tegmasdan bartaraf etish lozim, deb ta'kidlaydi. Ibn Sinoning uqtirishicha, oila tarbiyasi ham nazariy, ham amaliy bir ish ekanligini ota-onalar yaxshi bilishlari kerak. Ota-ona bola tarbiyasida turli usullardan foydalansa, u oila baxtli bo'ladi. Darhaqiqat, farzandlarimizni tarbiyalashda bolalarimizga yaxshilik qilishimiz, mexribon bo'lishimiz, ularning nafsoniyatini qadr-qimmatini hurmat qilish, ularga baqirmay va qo'rqitmay, ulardan har birining qaygu alamini sezish va har biri erishgan yutug'idan xursand bo'lishimiz, kerak bo'lganda ularga ishonch bildirib, darxol yordamga kelishimiz kerak.

Bola tarbiyalashda bolaning yoshini, aqliy salohiyatini, xarakterini hisobga olish kerak. Ta'lim-tarbiya jarayoni bolaga hayot quvonchi keltirishi kerak. Bunda oilaning o'rni beqiyosdir. Oilada bolalarni tarbiyalash va kamolotga yetkazish, kasb-hunar egallash, xulq odob qoidalari, nutq madaniyati, mexmondorchilik madaniyati shakllanadi. Ibn Sino asarlarida axloqiy fazilatlar alohida o'rin egallaydi. Uning yozishicha, pokiza xulq-odamiylik javhari, kishini inson sifatida ulug'laydi, tuban axloq esa odam umrining zavolidir. Ibn Sino o'zining "Salomon va Ibsol", "Yusuf qissasi" nomli asarlarida ijobiy qaxramonlar Ibsol va Yusuf lar obrazida berilgan xislatlarni insonlarda ko'rmoqchi bo'ladi, shunga odamlarni da'vat qilib, uni ulug'laydi. Qahramonlarni oriyatli, nomusli, sof yigit sifatida keltirib, ularning hech qanday tuyg'ularga berilmasdan, go'zalliklarga parvo qilmasdan, o'zini tutib olgan, noma'qulchilik yo'lga kirmaydigan, o'ziga yomonlik qilganlardan qasd olmaydigan, ularning barcha kirdikorlariga dunyodagi oddiy vokea, kishilarning yomon tabiat, yomon xulqlari natijasi deb qaraydigan, yomonlik qilganlarning o'zi oxir- oqibatda qilmishlarini tushunib yetishiga ishonadigan qaxramonlar sifatida talqin etadi. Olimning "Hayy ibn Yaqzon" qissasi Sharq falsafasidagi o'rganilishi juda og'ir bo'lgan asarlardandir. Asarda instinkt, shahvatga berilish, g'azab, ochko'zlik, yalqovlik, hasad, zulm, o'g'irlik kabi kishilardagi salbiy xususiyatlarning foyda va zararli tomonlari, ular bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida fikr yuritiladi.

Ibn Sinoning fikricha, yuqoridagi salbiy xususiyatlar har bir kishini o'z olamiga tortib, inson tabiatidagi bor bo'lgan qobiliyatning normal ishlashiga yo'l qo'ymaydi, kishidagi buzuq xayollar, g'azablanish shahvatga o'chlik kabilar ham odamning dushmanlaridir. Bular yomonlikka yo'lovchidir, hayotda kishi birinchi navbatda mana shu dushmanlariga qarshi kurashmogi kerak. Bu bilan faylasuf kishilarni soflikka, chin insoniy xislatlarni egallashga chaqiradi.

Ibn Sino asarlarida insonning kishilar orasida o'zini tutishi, oila a'zolarining o'zaro aloqalari, jamiyat turli tabaqalarining munosabatlari maxsus yoritilgan. Olimning tarix zarvaraqlarida abadiy muxrlanib qolgan ijod namunalari bugungi kun uchun ham bitmas - tuganmas saboq chashmasidir:

Ul bir necha nodon, chu farosat qosir,  
O'ylarki, jahonaro ular donodir.  
Eshak bo'la qolkim, ular eshaklik etib,  
Eshak agar ermasang, sanarlar kofir.

Ibn Sino odamlarni do'stlik, o'zaro chinakam munosabatlarda bo'lishga chaqirib: "Ey birodar, haqiqatni ochib tashlanglar, bir-biringiz bilan samimiy do'st bo'linglar, har biringiz o'z birodaringiz uchun xolis dilingizdagi pardalarni ochib tashlanglar deydi.

Ibn Sino insonni yuksak axloqiylik va baxtga yetish uchun sabrli va har qanday qiyinchilikka chidamli bo'lishga chorlaydi.

Olim insonlardagi salbiy va ijobiy sifatlar mohiyatini o'rganib chiqib, Salbiy sifatlardan kutulmok uchun, agar ular tasodifiy ta'sir tufayli paydo bo'lgan bo'lsalar, kishi o'z irodasini safarbar etmogi zarur.

Ko'p narsa insonning o'ziga bog'lik. Agar bu sifatlar odatga aylanib qolsa kishining tabiatiga moslashib qoladi. Demak, yaxshi sifatlarga odatlangan odam yaxshilik kasb etadi, yomon sifatlarga odatlangan esa Yomonlikka o'rganib qoladi. Yaxshilik ila saxovat oshiqchalik va yetishmovchilikning o'rtasidir, degan xulosaga keladi va bu boradagi falsafiy fikrlarini "Odob haqida" risolasida yozib qoldiradi. Va Olimning insonlar o'rtasidagi munosabatlar do'stlikka yo'g'rilgan bo'lishi, adolatli, insofli bo'lish, kambag'al, bemor, jismoniy jihatdan nuqsoni bor kishilarga rahm-shafqat ko'rsatish, behad mol-mulkka berilmaslik, o'tkinchi dunyoning yuzaki xursandchiliklariga hirs qo'ymaslik haqidagi da'vatlari barcha davrlar elu-elatlar uchun birday manfaat kasb etadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, turli davrlarda Buxoro zaminida yashagan bu mutafakkir o'zlarining bebaho asarlari, betakror, qimmatli fikrlari, g'oyalarida insonni to'laqonli o'rganish, uning o'ziga xosligi, imkoniyatlarini ochib berishga harakat qilganlar. Ular insonii eng ulug' mavjudot, axloqiy fazilatlar sohibi sifatida talqin qilganlar.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jalolov A. Vospitanie filosofiy // Kultura Centralnoy Azii. 1998g, sentyabr
2. Nosirov R. N. Ibi Sinoning "Amaliy falsafa" sida inson tarbiya muammosi. "Mustaqil O'zbekiston falsafa fanlarining dolzarb muammolari" to'plamida. T. 2002, 126-bet
3. Ibroximov A. Juraev N. Vatan tuyg'usi. T. 1996 y, 135-bet.
4. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 1160-1164.
5. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch – 3.2023. 19-21.
6. Jurakulovich, S. J. (2023). PHILOSOPHICAL VIEWS OF SAGES ON HUMAN VALUES AND GLORIFYING HIM. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 2(16), 229-238.
7. Shodiev, J. (2022). Ilk uyg'onish davrida–komil insonni shakllantirish vatarbiyalashda tasavvuf ta'limotining o'rni. *Scientific Bulletin of NamSU-Nauchnyy vestnik NamGU-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil\_4-son*, 229.
8. Shodiev, J. J. Mamlakatimizda inson qadri yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. *Qardu xabarlar. Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. Maxsus son (Ijtimoiy fanlar)*.
9. Shodiev, J. J. (2020). INTERPRETATION AND DESCRIPTION OF UMAR KHAYYAM RUBAYA. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(9), 206-211.